

KELAJAGIMIZ BUNYODKORLARI UCHUN TA'LIMDA YARATILGAN SHART  
SHAROITLAR UNDA ILG'OR O'QITISH METODIKASI HAMDA TARBIYANING  
AHAMIYATLILIGI

**Qudratova Mardon Alimardon qizi**

Ingliz tili o'qituvchisi, Zijo-Zukko nodavlat ta'lif muassasi

**Annotasiya:** Mazkur maqolada bizning kelajagimiz bo'lgan yosh avlodning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishida ta'lif-tarbiyaning naqadar ahamiyatli ekanligi to'g'risida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogika va ijtimoiy psixologiya, axloq mezonlari, komponentlar, xulq-atvorlar, ta'lif-tarbiya, dolzarb masala, odamiylik sifatlari, xalq manfaatlari, psixologik holat.

Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nан barkamol avlodga ta'lif-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Islom Karimov: "Biz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqeahodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak "[1 ], - deb ta'kidlagan edi.

Ta'lif yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashning asosiy komponentlaridan biridir. O'smir yoshdagi o'quvchilarning shaxsi va ularning kamoloti muammosi taraqqiy etayotgan va o'z taraqqiyotida yuksak cho'qqiga intilayotgan jamiyat uchun dolzarb masaladir. Har bir o'quv fanining o'rganilishi, ta'lif samarasi yuksak bo'lishi, bolalar erkin fikrlashni o'rganishi - naqadar dolzarb ekanligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Erkin fikrlay oladigan kishigina jamiyatda o'z mavqeini to'la idrok qila oladi. Bilimdonlikning muhim qismi bo'lgan insoniy demokratik munosabatlar tizimidagi teranlik shaxs taqdiri va salohiyatini belgilovchi muhim omildir.

Bugungi kunda o'smirlarning shaxslararo va ular o'rtafigi o'zaro munosabatlari ma'lum bir darajada ularni shaxsida psixologik holatlarni o'zgartirish va ijobjiy munosabatlarni shakllantirishda yordam beradi. Maktab ta'lifining san'at yo'nalishi mazmuni bolalarning ta'lif-tarbiya olishiga, odamiylik sifatlari qunt bilan singdirib borilsa, ular yetuk va barkamol, sog'lom, mustaqil fikrlovchi shaxs bo'lib yetishadi.

Pedagogika va ijtimoiy psixologiya har bir o'smir shaxsning hayotning barcha jabhalarida o'zini erkin sezish va fikrlarini to'la-to'kis bayon etishiga o'rgatuvchi usul sifatida xizmat qiladí. Har bír yosh davrníng psixologík hususiyatlarińí hisobga olgan holda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish bolada o'z vaqtida o'zini anglashni vujudga keltiradi. Bolada o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtai nazar, o'z huquqini his etish, o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi.

"Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarińmízníng odob-axloqí, yurísh-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadígan kím - yoshlari. Mayli, yoshlari o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularníng qalbida doímo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nímaníng hisobidan eríshamíz? Tarbiya, ta'lim va faqat shular hisobidan", deya ta'kidladi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.2 Zero bíz yoshlarińmízní har tomonlama barkamol, erkín, ijodkor, mustaqil fíkr egasí etib tarbiyalashni o'z vazifamiz deb bílamíz.

O'quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olíngan aniq mísollar bílan to'líq híkoyalarní qízíqíb tínglaydilar. Ularga axloq mezonları, tarix qoídaları, Vatanímízníng tabiiy boyılıkları, ajoyib, mehnatkash kíshiları, tarix, adabiyot, san'at haqida híkoya qílib berish mumkín. Badiiy adabiyot, rádio, televídenie, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qímmatlí material bo'ladí. Suhbat ham, híkoya ham o'quvchilarıníng yoshiga mos mavzularda, ular tushunadígan so'zlar orqali o'zbek tilida o'tkazlíshí kerak. Eng yaxshisi, suhbat va híkoya mavzusini o'quvchilarıníng o'zlarí tanlasin, bunda suhbatníng zavqí-shundan ta'mínlanaadi, o'quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar. Namuna. O'quvchilar o'z atroflarídagi kíshilarда hamma yaxshí axloqiy sifatlarní ko'ríshlarí va namuna olíshlarí níhoyatda muhímdír. O'qítuvchíníng shaxsan o'zí namuna bo'lishi, ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar. O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qayerda bo'lismasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari

lozim. Shuningdek, namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan.

Mashq bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikda tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi. O'qituvchilar, ota-onalar bolalarda ijobiy odatlar shakllanishini kuzatib borishlari kerak. O'quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular bilan muntazam muloqotlari tufayli taqlid qilish, tarbiya orqali hosil qiladi. Oxir-oqibatda odat ehtiejga aylanadi. Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, axloqiy tajribasi kengayadi. Odatsiz tarbiya - poydevorsiz binoga o'xshaydi, odat esa muntazam mashq orqali mustahkamlanadi. O'rgatish -ijtimoiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim. Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mayjud: faoliyatda mashq qilish; kun tartibi mashqlari, maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat va o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o'rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq o'z istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq, malaka va ko'nikmalarni hosil qiladi va mustahkamlaydi. O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamaoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. O'quvchilar o'z kuchlarini umumishiga sarflashga, jamaoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar.

O'quvchilarning har biri O'zining o'sib, ulg'ayib, kamol topib borayotganini bilishi kerak. Faqat shundagina O'quvchi o'zining olg'a siljib borayotganni ko'ra biladi, o'z kuchiga ishonadi. Kattalarning so'zi bilan yurish-turish va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak. Ilg'or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan yorqin ma'lumotlar, adabiy asarlardagi, kinofilmlardagi va spektakllardagi qahramonlar xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta'sir qiladi. O'quvchilar o'qituvchilar

tomonidan berayotgn bilim malaka va ko'nikmalar asosida shkllanib boradilar. Siz va biz ularga tarbiya berish jarayonida o'z kelajagimiz uchun zamin yani mustahkam poydevor tayyorlab boramiz. Aynan shuning uchun ham bizning har bir hatti harakatimiz va aytayotgan har bir so'zimiz o'quvchilar ongiga ta'sir etadigan kata kuch ekanligini doimo yodimizda saqlashimiz lozim.

Darhaqiqat, hamma zamonlarda yoshlarning ta'lif-tarbiyasi dolzarb masala bo'lib kelgan. Bugun bizning davrimizda ham yoshlarimizga nihoyatda yuksak e'tibor bilan qaralmoqda. Hukumatimiz tomonidan yoshlarimizga o'qish va mehnat qilish borasida hamma shart-sharoitlar muhayo qilingan. Endigi vazifamiz mana shu g'amxo'rliklarga munosib sa'y-harakatda bo'lishdir.

#### Ta'limda yaratilgan shart-sharoitlar

Hozirgi zamon talablariga javob beruvchi ta'lif tizimini yaratish uchun quyidagi shart-sharoitlar yaratilmoqda:

1. Zamonaviy ta'lif muassasalari:Yoshlarning qulay va samarali o'qishlari uchun yangi maktablar, kollejlar va oliy o'quv yurtlari qurilmoqda. Ularda zamonaviy texnologiyalar va ilmiy jihozlar bilan jihozlangan sinflar tashkil etilmoqda.

2. Axborot texnologiyalarining joriy etilishi:Dars jarayonida elektron resurslar, onlayn ta'lif platformalari va virtual laboratoriylar qo'llanilmoqda. Bu o'quvchilarning dunyo miqyosidagi bilimlarga ega bo'lishiga imkon yaratadi.

3. O'qituvchilar malakasini oshirish:Pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun muntazam seminar va treninglar tashkil qilinmoqda.

#### Ilg'or o'qitish metodikasi

Innovatsion o'qitish uslublari o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilishda muhim rol o'ynaydi:

1. Interaktiv uslublar:O'quvchilarning faolligini oshiruvchi jamoaviy muhokamalar, rolli o'yinlar va muammoli vazifalar taqdim etiladi.

2. STEAM ta'lifi:Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi orqali o'quvchilarni kreativ va analitik fikrlashga o'rgatish.

3. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv:Har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olib, ularga mos o'qitish usullarini tanlash.

#### Tarbiya va uning ahamiyati

Bilim olish jarayonida tarbiya ham asosiy o'rın tutadi. Chunki barkamol avlodni shakllantirishda bilim va tarbiya bir-birini to'ldiradi.

1. Ma'naviy va milliy qadriyatlar: Yoshlarni ajdodlarimizning boy merosi, ona yurtga muhabbat, vatanparvarlik va odob-axloq qoidalariga sodiq qilib tarbiyalash dolzarbdir.

2. Ijtimoiy mas'uliyat va liderlik qobiliyatları: Yosh avlodda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish va liderlik sifatlarini rivojlantirish orqali ularni jamiyatga faol hissa qo'shuvchi fuqarolar sifatida tarbiyalash.

3. Oila va ta'lim hamkorligi; Ota-onalar va ta'lim muassasalari o'rtaсидаги hamkorlik bolalarning bilim olish va tarbiya jarayonini mustahkamlaydi.

### **XULOSA**

Kelajagimiz bunyodkorlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va ilg'or metodikalarning qo'llanilishi, yoshlarni bilimli, ma'rifatli va yuksak tarbiyalii insonlar qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, tarbiyaga e'tibor qaratish – jamiyatning barqaror rivojlanishining garovidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. Mirziyoyev.SH.M "2017-2021- yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi " 2017-yil 7-fevral - 61b

2. R.A.Mavlonova va boshqalar "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent: "Fan va texnolgiyalar. 2007 y.

3. Sh. Shodmonov va M. Axmedova "Umumiyligining pedagogika nazariyasi va amaliyoti" Fan va texnologiya n. Toshkent 2019- yil

4. Abdullaeva B. S. et al. The specifics of modern legal education and upbringing of schoolchildren in the countries of the post-soviet world //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. - 2020. - T. 12. - №. 2. - C. 2706-2714.

5. Abduganiyev O. Developing Student Civil Competency //Eastern European Scientific Journal. - 2019. - №. 1.

6. Abduganiyev O. Formation of legal training aimed at competitiveness in pupils of secondary schools //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. - 2019. - T. 9. - №. 7.

7. Tursunboyevich Ozod Abduganiev. Pedagogical and psychological opportunities for the development of social active civil competences in students. // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue : 3